AQSH NEOKONSERVATIZM MAFKURASI SHAKLLANISHIDA ZIYOLILAR MIGRATSIYASINING O‘RNI

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Jizzax DPU falsafa, tarbiya va huquq ta’limi kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSh neokonservatizm mafkurasi shakllanishida Yevropadan AQShga ko‘chib kelgan bir guruh ziyoli qatlam vakillarining o‘rni va siyosiy-mafkuraviy oqim sifatida rivojlanish tendensiyalarining ayrim jihatlari yoritilishiga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: AQSh, neokonservatizm, migratsiya, mafkura, siyosat, “aql markaz”, tashqi siyosat.

Yangi asrimiz boshlariga kelib ayrim siyosiy mafkuralarning global jarayonlarga ta’siri, ularning farqli xususiyatlari va davlatlarning ichki va tashqi siyosiy qarorlar qabul qilishidagi o‘rni masalalarini tahlil qilish zarurati ortdi. Global geomafkuraviy ta’sir omilining kuchayishi bu kabi mafkuraviy oqimlarning shakllanish manbalari va nazariy asoslariga hissa qo‘shgan tadqiqotchi-olimlar, siyosiy arbob va lobbi guruhlar hamda “aql markazlari”ni tizimlashtirish, tajribalarini o‘rganish asosida mafkuralarning g‘oyaviy o‘zgarish tendensiyalari va istiqbollarini baholashga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi. Shu nuqtai nazardan global geosiyosiy jarayonlarga sezilari ta’siri bilan ajralib turuvchi AQSh neokonservatizm mafkurasi nazariyotchilari va ularning ilmiy-amaliy faoliyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Neokonservatizm yangi mafkuraviy oqim sifatida shakllanishi bevosita bir guruh ziyolilar migratsiyasi bilan bog‘liqdir.

Neokonservatizm tarixiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda yangicha shakllangan siyosiy va intellektual harakat sifatida u uchta asosiy rivojlanish fazasiga ega ekanligi ta’kidlanadi. Xususan, dastlabki bosqichda neokonservativ g‘oyalar shakllanishining asosiy o‘zagini yosh radikal birlashmalar tashkil qiladi. Ikkinchi bosqichda liberal g‘oyalar himoyasiga tayanuvchi yozuvchi va tadqiqotchi olimlarning maxsus guruhlari a’zolari sifatida namoyon bo‘lishdi. Uchinchi bosqichda esa siyosiylashgan tashkilot va “aqliy markaz”larda faoliyat olib boruvchi jamoat ziyolilari sifatida

shakllanishdi[1].

Neokonservatizim shakllanishi va rivojlanishi davrlashtirilar ekan, 1940-1950-yillarni o‘z ichiga olgan birinchi bosqichda neokonservatizm intellektual oqim sifatida namoyon bo‘ladi. Uning tarixi Sharqiy Yevropadan chiqqan immigrantlar oqimi bilan bog‘liq bo‘lib, neokonservatorlarning birinchi avlodi yuzaga keldi. Xususan, Sharqiy Yevropadan AQShga ko‘chib kelgan yahudiy oilalarning vakillari bo‘lgan Irving Kristol, Daniel Bell, Natan Gleyzer, Seymur Martin Lipsetlarning o‘rni katta bo‘ldi. 1930-1940-yillarda ular Nyu-Yorkdagi yuqori daromadga ega bo‘lmagan immigrantlar uchun bepul o‘quv muassasalaridan bo‘lgan Shahar (City) kollejida tahsil olishdi. Ularning talabalik davrlari 1930-yillardagi “Buyuk depressiya” davriga to‘g‘ri kelib, bu davrda AQShda yuqori ishsizlik va sotsial muammolarning ortishi kuzatildi. Shunga bog‘liq holda jamiyatda, xususan immigrantlar orasida so‘l g‘oyalar keng tarqaldi. Dastlab publitsistika, adabiyot tanqidchiligi va ijtimoiy fanlardan saboq berish faoliyatlari bilan mashg‘ul bo‘lgan bo‘lg‘usi neokonservatorlar asosiy e’tiborni AQSh jamiyatining ijtimoiy-madaniy muammolariga qaratishdi. 1950-60-yillaridagi AQSh jamiyatida kuzatilgan ijtimoiy o‘zgarishlar, “sovuq urush” sharoitidagi xalqaro umidsizlik neokonservatizmning siyosiy mafkura sifatida shakllanishini taqozo etdi. Neokonservatorlar bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishi Demokratik partiya ta’siri ostidagi Amerika jamiyati ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatayotgan antiamerikanizmning o‘sishi bilan bog‘lashadi[2]. Shuning uchun ham konservativ qadriyatlarni saqlash orqali jamiyatdagi ijtimoiy bo‘xronlarni bartaraf etish g‘oyasi keng tarqala boshlaydi.

Bu davrda AQSh neokonservatizm siyosiy mafkurasi shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan faylasuf sifatida Leo Shtraus (1899-1973) e’tirof etiladi. U neokonservatizm nazariyotchilari hisoblanmish Elliot Abrams, Pol Vulfovis, Robert Kagan, Irving va Uilyam Kristollar, Richard Perl, Norman Podgores hamda Frensis Fukuyamalarning qarashlari shakllanishiga ta’sir ko‘rsatdi. Mazkur neokonservatizm namoyondalarining ko‘pchiligi Leo Shtraus o‘quvchilari bo‘lishgan.

Leo Shtraus jamiyat tuzumi va boshqaruvi masalalarida qator g‘oyalarni ilgari suradi. Xususan, u ijtimoiy tengsizlik tamoyilining jamiyat siyosiy barqarorligidagi belgilovchi o‘rni haqida fikr yuritar ekan, jamiyat a’zolari o‘z iqtidorlari asosida turli vazifalarga mas’ul ekanligini ta’kidlaydi. Siyosiy tartibda inson tabiati xususiyatlaridan kelib chiqib, kimningdir boshqaruvda ko‘proq iqtidorga ega bo‘lishini asoslaydi. Aynan mazkur yondashuv keyingi davr neokonservativ doiralar faoliyati uchun konseptual ahamiyat kasb etdi. Xususan, har qanday masalalardagi mafkuraviy ideallar va ko‘rsatmalar ommaga emas balki asosan elitaga yo‘naltirilganligi borasidagi neokonservativ xulosalar shakllandi. Neokonservatorlar L.Shtraus g‘oyalari asosida jamiyatdagi tartib va boshqaruvda elitizm tamoyillariga ko‘proq e’tibor qaratishadi. Neokonservativ doiralarda “Jamiyat muayyan sharoitda aslida nima muhim va zarur ekanligini anglash imkoniyatiga ega emas. Shu bois ta’lim ko‘rgan siyosiy elita to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishi kerak. Demak, davlat – siyosiy voqelik poydevori, jamoat manfaati esa – “siyosiy qarorlar qabul qilish uchun axloqiy standart”dir[3] singari neokonsevatizmning asosiy qarashlari shakllana boshladi.

Ikkinchi bosqich 1960-70-yillarni o‘z ichiga qamrab olib, bu bosqichda intellektual oqimning siyosiy sinf mafkurasiga transformatsiyasi kuzatiladi hamda siyosiy qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatuvchi aniq tashqi siyosiy konsepsiyalar shakllana bordi. Neokonservatizm tushunchasiniing o‘zi ham 1970-yillarda qo‘llanila boshlandi. Bu bosqich neokonservatizmni partiyadan holiligi bilan izohlanadi. Konsolidatsiya markazi bo‘lib “Demokratik ko‘pchilik koalitsiyasi” xizmat qildi. Shu bilan birga “o‘ng”larning bosma matbuot tarmoqlari va “aqliy markazlar”i shakllana boshlandi. Neokonservatizmning asosiy mafkuraviy – uyg‘unlashtiruvchi markazi sifatida N.Podgores boshchiligida nashr qilanadigan “Commentary” jurnali sahnaga chiqdi. Bu davrning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtalganda neokonservatizmning markaziy g‘oyalaridan biri sifatida antikommunizmning kuchayib borishi, SSSRga qarshi kurashishiga tayyorgarlik, yadroviy barqarorlik va uchinchi dunyo mamlakatlariga g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish kabi tendensiyalarni e’tirof etish mumkin.

Neokonservatorlar mafkuraviy kurashda yangi vosita – huquqiy himoya tematikasidan foydalanish orqali AQSh tashqi siyosatining muhim instrumentini shakllantirishdi. Bu davrdagi huquqiy himoya harakatining yorqin vakillari sifatida D.P.Moynixen, J.Kirkpatrik, G.Jeksonlar

e'tirof etildi.

Neokonservatizmning zamonaviy uchinchi bosqichi 1990- yillardagi strategik turg'unlik davrida boshlangan bo'lib, neokonservatorlarning yangi avlod vakillarning kichik J.Bush hukumati davridagi salmoqli ta'siri bilan yaqqol namoyon bo'ldi. Ular faoliyatining asosiy g'oyaviy dasturi "Yangi Amerika asri loyiha"si (Project for the New American Century) aql markazi doirasida shakllantirildi. Neokonservativ loyihalar "Bush doktrinasi"da amalga oshirildi. Sobiq sotsialistik respublikalar ittifoqining endilikda mavjud emasligiga qaramay AQSh hukmronligi g'oyasi, himoyaviy urushlarga kirishish va global miqyosda demokratiyani ilgari surish neokonservativ dunyoqarashning asoslari sifatida e'tirof etildi va kichik J. Bush hukumati davridagi tashqi siyosiy faoliyada o'z aksini topdi[4].

Neokonservativ g'oyalar rivoji xulosalariga tayanilib aytish mumkinki, mazkur davrlashtirish omillari va qamrovi butun neokonservativ mafkuraviy jarayonlarni aks ettiradi. Ammo shu bilan birga, fikrimizcha tadqiqotchi tomonidan uchinchi zamonaviy bosqich sifatida 1990-yillardan hozirgi kungacha qamrab olinishi bu davrdagi neokonservativ qarashlar tizimini to'liq qamrab ololmaydi. Shu jihatdan 2000-2008 yillardagi neokonservativ qarashlar qamrovini to'rtinchi bosqichga kiritish hamda 2009 yildan hozirgi kungacha shakllantirilgan g'oyalar tizimini neokonservativ qarashlarning beshinchi bosqichi sifatida ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu borada rossiyalik tadqiqotchi S.Kislitsin[5] 2009-2019 yillarni qamrab oladigan to'rtinchi bosqich, ya'ni Barak Obamaning ikki muddatli prezidentlik boshqaruvi hamda Donald Tramp hukumati faoliyatining boshlanishi davrini ajratib ko'rsatadi. Bu davrda neokonservatorlar joriy hukumat faoliyatiga muxolif munosabatda bo'lishib, shu bilan birga ularning g'oyaviy birligi darz ketganligi bilan xarakterlanadi. Xalqaro vaziyat o'zgaruvchanligi sharoitida mafkuraviy yondashuvlardagi utopik elementlar hamda AQShning tashqi siyosiy ta'sir imkoniyatlari kuchsizlanishi kabi masalalarda qarama-qarshi fikrlar yuzaga keldi. Shu bilan birga bu davr AQSh oldida turgan tashqi siyosiy mo'ljallar hamda xalqaro munosabatlarni rivojlantirish yo'llari borasida neokonservatizm tarafdorlari qarashlariga tanqidiy munosabatda bo'lishi bilan ham qiziqarlidir. Bir vaqtning o'zida neokonservatizmning tashqi siyosat sohasidagi alohida g'oya va konsepsiyalariga amaliyotda ehtiyoj sezilganligi, xususan, D.Trampning boshqaruvga kelishi davrida kuzatildi.

Neokonservatorlar elitar va yopiq guruh sifatida namoyon bo'ladi hamda ularning ko'pchiligi yahudiy migrant oilalariga mansub bo'lib, a'zolar munosabatlari qarindoshlik va mehnat faoliyati aloqalari bilan uzviy bog'langan. Masalan, Irving va Uilyam Kristollar, Norman Podgores, Maks But, Richard Perl, Pol Vulfovis, Robert Kagan, Duglas Feyt, Lyuis Libbi, Elliot Abrams, Jon Bolton singari neokonservatizm tarafdorlarini ko'rsatish mumkin.

Neokonservativ g'oyalar rivojida 1997 yilda tashkil qilingan "Yangi Amerika asri uchun loyiha" (Project For New American Century - PNAC) lobbistik tashkiloti muhim ahamiyat kast etadi. Yangi aqliy markaz "Amerika tadbirkorlik instituti" hududidan joy oldi. Tashabbuskorlari Dik Cheyni, Pol Vulfovis, J.Bush va Lyuis Libbilar hisoblanishadi. Bu tashkilot ham xalqaro munosabatlar, AQShning jahon maydonida tutgan o'rni va harbiy kuch vositalaridan foydalanish kabi masalalarga doir tahliliy materiallar tayyorlash bilan shug'ullandi. Uning faoliyatida nafaqat neokonservatizm namoyondalari, balki J.Bush, D.Cheyni, S.Forbs, D.Kueyn, D.Ramsfeld singari taniqli siyosat arboblari ham faol ishtirok etishdi. "Loyiha" quyidagi maqsadlari ilgari surishga boshchilik qildi: "global majburiyatni amalga oshirish" uchun harbiy harajatlarni ko'paytirish, AQSh manfaatlari va qadriyatlariga tahdid soluvchi tuzumlar bilan kurashish uchun demokratik ittifoqchilar bilan munosabatlarni mustahkamlash, xorijda siyosiy va iqtisodiy erkinlikni ilgari surish, joriy xalqaro tartibni saqlash va kengaytirishda AQShning o'ziga xos roli e'tirofiga erishish. Bu tashkilot o'zining sakkiz yillik faoliyati (1997-2005) davomida 1.3 mlrd AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni qo'lga kiritdi.

Umuman, AQShda yuzaga kelgan neokonservatizm mafkuraviy oqimi an'anaviy AQShga xos turli millat va elatlar manfaatlarini umumiylashtirish davosi bilan umumamerika siyosiy madaniyatini qaror toptirishga harakat qilayotgan bir guruh ziyolilar qarashlari asosida rivojlanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur asoschilar tomonidan turli darajada va siyosiy boshqaruv tizimlargi bog'liqlikda faoliyat yuritib kelayotgan "aql markazlar"ning tashkil etilishi

neokonservatzimning amaliy siyosat, xususan, siyosiy qarorlar qabul qilishga ta'sirining ortishiga ham xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan:

1. Velasco J. Neoconservatives in U.S. Foreign Policy under Ronald Reagan and George W. Bush.Voices Behind the throne, 2010. – P.25.

2. Durham M.The American Right and the Iraq War //The Political Quarterly.-2004.– Volume 75. – Issue 3. – P. 257.

3. Thompson C.B. Neoconservative Unmasked. http://www.cato-unbound.org/2011/03/07/c-bradley-thompson/neoconservatism-unmasked

4. Блохин К. Внешнеполитическая концепция американского неоконсерватизма и ее реализация в отношении СССР и России. Автореферата по ВАК 07.00.15, кандидат исторических наук. http://www.dissercat.com/content/vneshnepoliticheskaya-kontseptsiya-amerikanskogo-neokonservatizma-i-ee-realizatsiya-v-otnosh#ixzz37nAMuVsu

5. Кислицын С. Внешнеполитическая идеология и практика американского неоконсерватизма. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. – М.2019. – С.7-8.